



DAVLAT RAQAMLI SUVERENITETINI TA'MINLASHDA KIBERXAVFSIZLIK VA SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISHNING HUQUQIY MEXANIZMLAR

Bahodirov Shahzod Ortiq o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Boxodirovshaxzod149@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20337956>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18-may 2026 yil

Ma'qullandi: 20-may 2026 yil

Nashr qilindi: 22-may 2026 yil

KEYWORDS

Raqamli suverenitet,
kiberxavfsizlik, shaxsga doir
ma'lumotlar, axborot
xavfsizligi, kibermakon, shaxsiy
hayot daxlsizligi, milliy axborot
infratuzilmasi, muhim axborot
infratuzilmasi, elektron
hukumat, raqamli huquqlar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada davlat raqamli suverenitetini ta'minlashda kiberxavfsizlik va shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishning huquqiy mexanizmlari ilmiy-nazariy va normativ-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya jarayonida davlatning mustaqilligi nafaqat hududiy, siyosiy va iqtisodiy mezonlar bilan, balki milliy axborot makoni, raqamli infratuzilma, ma'lumotlar bazalari, elektron davlat xizmatlari, muhim axborot tizimlari va kibermakon ustidan samarali huquqiy nazoratni amalga oshirish imkoniyati bilan ham belgilanadi. Maqolada raqamli suverenitet tushunchasi kiberxavfsizlik, shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish, axborot erkinligi va milliy xavfsizlikning o'zaro bog'liqligi asosida yoritiladi. Shuningdek,..

XXI asrda davlat suvereniteti tushunchasi yangi mazmun bilan boyib bormoqda. An'anaviy davlat suvereniteti hudud, aholi, davlat hokimiyati va xalqaro munosabatlarda mustaqil harakat qilish vakolati bilan izohlansa, bugungi raqamli jamiyatda ushbu tushuncha axborot resurslari, ma'lumotlar oqimi, elektron infratuzilma, raqamli platformalar, algoritmik boshqaruv va kiberxavfsizlik tizimlari bilan ham bevosita bog'liq holda talqin qilinmoqda. Chunki davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, bank-moliya tizimi, sud-huquq sohasi va fuqarolarga davlat xizmatlari ko'rsatish jarayonlari tobora raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirilmoqda.

Raqamli muhitda davlatning mustaqil siyosat yuritish qobiliyati, milliy axborot infratuzilmasini himoya qilishi, fuqarolarning shaxsga doir ma'lumotlari ustidan huquqiy kafolatlar yaratishi va kibertahdidlarga qarshi samarali javob bera olishi raqamli suverenitetning asosiy shartlari hisoblanadi. Luciano Floridi raqamli suverenitetni zamonaviy axborot jamiyatida demokratik nazorat, huquqiy tartibga solish va texnologik mustaqillik bilan bog'liq muhim muammo sifatida baholaydi. [5] Bu fikr raqamli suverenitetning faqat texnik yoki xavfsizlik masalasi emas, balki davlat boshqaruvi, inson huquqlari va milliy manfaatlar bilan uzviy bog'liq kompleks huquqiy kategoriya ekanini ko'rsatadi.

O'zbekiston sharoitida raqamli suverenitet masalasi ayniqsa dolzarbdir. So'nggi yillarda elektron hukumat, raqamli iqtisodiyot, masofaviy xizmatlar, elektron hujjat aylanishi,

biometrik identifikatsiya, davlat axborot tizimlari va raqamli infratuzilmaning kengayishi davlat oldiga yangi huquqiy vazifalarni qo'ymoqda. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasining qabul qilinishi elektron hukumat, raqamli industriya, raqamli ta'lim va raqamli infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha tizimli yo'l xaritasini belgilab berdi.[4] Biroq raqamlashtirish qanchalik kengaysa, kiberhujumlar, shaxsga doir ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi, axborot tizimlariga ruxsatsiz kirish, transchegaraviy ma'lumotlar oqimi va raqamli qaramlik xavflari ham shunchalik ortadi.

Asosiy qism

Davlat raqamli suvereniteti, avvalo, milliy raqamli makonda huquqiy tartibni ta'minlash, davlat axborot tizimlarini muhofaza qilish, fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish hamda kibernomada shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari muvozanatini saqlash bilan bog'liq. Raqamli suverenitet davlatning Internet va global texnologik tizimlardan ajralib qolishini anglatmaydi. Aksincha, u ochiq raqamli muhitda milliy manfaatlarni mustaqil himoya qilish, xorijiy texnologik qaramlikni kamaytirish, axborot xavfsizligini ta'minlash va fuqarolarning raqamli huquqlarini kafolatlashni bildiradi.

Ushbu jarayonda kiberxavfsizlik asosiy huquqiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Kiberxavfsizlik — bu davlatning raqamli infratuzilmasi, axborot tizimlari, elektron xizmatlari va muhim axborot resurslarini kibertahdidlar, ruxsatsiz kirish, zararli dasturlar, ma'lumotlarni buzish, o'g'irlash yoki yo'q qilish kabi xavflardan himoya qilishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy hamda texnik chora-tadbirlar majmuidir. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonunida kiberxavfsizlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solish ushbu qonunning asosiy maqsadi sifatida belgilangan.[3] Mazkur qonun raqamli suverenitetni ta'minlashda maxsus normativ asos vazifasini bajaradi.

"Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonunda kiberxavfsizlikni ta'minlashning asosiy prinsiplari sifatida qonuniylik hamda kibernomada shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi belgilangan.[4] Bu normalar raqamli suverenitetning huquqiy mohiyatini ochib beradi. Chunki raqamli makonda davlat manfaatlarini himoya qilish fuqarolarning huquqlarini cheklash hisobiga emas, balki qonuniylik, mutanosiblik, shaffoflik va huquqiy kafolatlar asosida amalga oshirilishi lozim. Shu jihatdan kiberxavfsizlik faqat texnik mudofaa vositasi emas, balki konstitutsiyaviy huquqlarni himoya qilishning ham muhim elementi hisoblanadi.

Raqamli suverenitetning ikkinchi muhim yo'nalishi — shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishdir. Raqamli jamiyatda shaxsga doir ma'lumotlar eng muhim axborot resurslaridan biriga aylangan. Fuqarolarning pasport ma'lumotlari, biometrik identifikatorlari, telefon raqamlari, yashash joyi, bank operatsiyalari, tibbiy ma'lumotlari, ta'lim va mehnat faoliyati haqidagi axborotlar elektron bazalarda saqlanmoqda. Bunday ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi yoki uchinchi shaxslar tomonidan suiiste'mol qilinishi insonning shaxsiy hayoti, sha'ni, qadr-qimmat, mulkiy manfaatlar va xavfsizligiga bevosita tahdid tug'diradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega ekani belgilangan. Xuddi shu moddada har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, noto'g'ri ma'lumotlarni tuzatish va qonunga xilof yo'l bilan to'plangan ma'lumotlarni yo'q qilishni talab qilish huquqiga ega ekani

mustahkamlangan.[1] Demak, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish oddiy texnik xavfsizlik masalasi emas, balki konstitutsiyaviy huquq darajasidagi kafolatdir.

Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishning maxsus huquqiy mexanizmi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunda belgilangan. Ushbu Qonunga muvofiq, shaxsga doir ma'lumotlar sohasini davlat tomonidan tartibga solish Vazirlar Mahkamasi va vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.[2] Bu norma raqamli suverenitetning institutsional asosini tashkil etadi, chunki shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha yagona davlat siyosati mavjud bo'lmasa, ma'lumotlar xavfsizligini tizimli ta'minlash qiyinlashadi.

Mazkur Qonunda shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish shartlari ham aniq belgilangan. Jumladan, shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish subyekt rozilik berganda, shartnomani bajarish zarur bo'lganda, mulkdor yoki operatorning qonunchilikda belgilangan majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lganda, shuningdek qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda amalga oshiriladi.[2] Bu yondashuv "maqsadga muvofiqlik", "rozilik", "zaruriyat" va "qonuniylik" tamoyillarini shakllantiradi. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish maqsadlari aniq belgilanishi, ma'lumotlar hajmi esa ishlov berish maqsadlariga mutanosib bo'lishi kerak.⁸

Raqamli suverenitet nuqtayi nazaridan eng muhim masalalardan biri ma'lumotlarning hududiy saqlanishidir. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasiga ko'ra, jismoniy shaxslarning biometrik ma'lumotlari, genetik ma'lumotlari hamda O'zbekiston hududida faoliyat yuritayotgan telekommunikatsiya operatorlaridagi foydalanuvchi jismoniy shaxslarning ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi hududida saqlanishi shart.[2] Bu qoida bevosita ma'lumotlar suverenitetining amaliy ko'rinishidir. Chunki fuqarolarning eng muhim shaxsiy ma'lumotlari milliy yurisdiksiya doirasida saqlanganda, davlat ularning qonuniy himoyasini kuchliroq ta'minlay oladi.

Shu bilan birga, ma'lumotlarni hududiy saqlash talabi global raqamli xizmatlardan foydalanishni butunlay cheklash degani emas. Aksincha, bu talab transchegaraviy ma'lumotlar oqimini huquqiy tartibga solish, chet davlatlarda shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi yetarli darajada ta'minlanganligini baholash va fuqarolarning ma'lumotlari ustidan milliy nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi. Mazkur mexanizm raqamli iqtisodiyotning ochiqligi bilan milliy xavfsizlik va shaxs huquqlarini muvozanatlashtirishga qaratilgan.

Raqamli suverenitetni ta'minlashda muhim axborot infratuzilmasini himoya qilish ham markaziy o'rin tutadi. Davlat boshqaruvi, energetika, transport, bank-moliya, sog'liqni saqlash, aloqa va boshqa strategik sohalardagi axborot tizimlari uzluksiz ishlashi davlat barqarorligi uchun zarur. "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonunda muhim axborot infratuzilmasi obyektlarini toifalashtirish, ularning yagona reyestrini yuritish va ularda kiberxavfsizlik talablarini bajarish tartibi belgilangan.¹⁰ Muhim axborot infratuzilmasi obyektlarining yuqori, o'rta va past darajalarga ajratilishi risklarni baholash va resurslarni to'g'ri yo'naltirish imkonini beradi.

Mazkur Qonunga ko'ra, muhim axborot infratuzilmasi subyektlari axborot tizimlarining uzluksiz ishlashini ta'minlashi, kiberxavfsizlik hodisalari to'g'risida vakolatli davlat organini xabardor qilishi, kiberhujumlarning oqibatlarini bartaraf etish choralari ko'rishini hamda belgilangan kiberxavfsizlik talablariga rioya qilishi shart.[3] Bu talablar davlat raqamli suverenitetini himoya qilishda faqat davlat organlari emas, balki xususiy sektor, operatorlar va muhim infratuzilma egalari ham mas'ul ekanini ko'rsatadi.

Kiberxavfsizlik va shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish o'zaro chambarchas bog'liq. Agar kiberxavfsizlik tizimi zaif bo'lsa, shaxsga doir ma'lumotlar bazalari noqonuniy kirish,

o'g'irlash yoki tarqatish xavfi ostida qoladi. Aksincha, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha huquqiy talablar aniq bo'lmasa, kiberxavfsizlik faqat texnik himoya bilan cheklanib qoladi. Shu sababli raqamli suverenitetni ta'minlash uchun ushbu ikki yo'nalish yagona kompleks tizim sifatida qaralishi zarur.

Bunda bir nechta huquqiy mexanizmlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, konstitutsiyaviy kafolatlar mexanizmi: shaxsiy hayot daxlsizligi, elektron xabarlar sir saqlanishi va shaxsga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi. Ikkinchidan, maxsus qonunchilik mexanizmi: shaxsga doir ma'lumotlar va kiberxavfsizlik sohasidagi maxsus qonunlar. Uchinchidan, institutsional mexanizm: vakolatli davlat organlari, muvofiqlashtiruvchi komissiyalar, reyestrlar va monitoring tizimlari. To'rtinchidan, javobgarlik mexanizmi: shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik, axborot tizimlariga noqonuniy kirganlik yoki kiberxavfsizlik talablariga rioya qilmaganlik uchun huquqiy javobgarlik. Beshinchidan, profilaktik mexanizm: kiberxavfsizlik auditlari, xodimlarni tayyorlash, texnik standartlarni joriy etish va raqamli savodxonlikni oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega ekani, davlat esa Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi belgilangan. Shu bilan birga, axborotni izlash, olish va tarqatish huquqi faqat qonunga muvofiq hamda konstitutsiyaviy tuzum, jamoat xavfsizligi, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur doirada cheklanishi mumkin.[1] Bu norma raqamli suverenitetning demokratik mazmunini ko'rsatadi: davlat Internetdan foydalanish imkoniyatini yaratadi, biroq axborot xavfsizligi va boshqa shaxslar huquqlarini himoya qilish uchun qonuniy cheklovlar ham belgilashi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli suverenitet avtoritar nazorat yoki axborot makonini yopish vositasiga aylanmasligi kerak. Uning asosiy maqsadi — ochiq, xavfsiz va huquqiy kafolatlangan raqamli muhit yaratishdir. Davlat raqamli suverenitetni ta'minlash orqali bir tomondan milliy xavfsizlikni himoya qiladi, ikkinchi tomondan fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari, axborot olish huquqi va raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kafolatlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, davlat raqamli suverenitetini ta'minlash bugungi kunda milliy xavfsizlik, inson huquqlari, iqtisodiy barqarorlik va davlat boshqaruvi samaradorligi bilan bevosita bog'liq strategik vazifadir. Raqamli suverenitetning huquqiy mazmuni davlatning raqamli makonda mustaqil siyosat yuritishi, muhim axborot infratuzilmasini himoya qilishi, shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligini kafolatlashi va kibertahdidlarga qarshi samarali huquqiy hamda institutsional mexanizmlar yaratishida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston qonunchiligida ushbu sohaning asosiy huquqiy bazasi shakllangan. Konstitutsiyada shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi va axborot olish huquqi mustahkamlangan. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, ishlov berish, maxfiylikni ta'minlash va ayrim ma'lumotlarni O'zbekiston hududida saqlash talablarini belgilaydi. "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonun esa kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish,

muhim axborot infratuzilmasini toifalash, monitoring qilish va kiberxavfsizlik hodisalariga javob berish mexanizmlarini yaratadi.

Kelgusida davlat raqamli suverenitetini yanada mustahkamlash uchun shaxsga doir ma'lumotlar muhofazasini xalqaro standartlarga mos takomillashtirish, sun'iy intellekt va algoritmik qarorlar qabul qilish bo'yicha maxsus huquqiy normalar ishlab chiqish, kiberxavfsizlik auditini kuchaytirish, davlat va xususiy sektor o'rtasida kiberxavfsizlik hamkorligini rivojlantirish hamda fuqarolarning raqamli savodxonligini oshirish zarur. Ana shundagina raqamli transformatsiya inson huquqlari, milliy manfaatlar va davlat suverenitetiga xizmat qiluvchi barqaror huquqiy tizimga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 2-iyul, O'RQ-547-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni. 2022-yil 15-aprel, O'RQ-764-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 2020-yil 5-oktabr, PF-6079-son.
5. Floridi L. The Fight for Digital Sovereignty: What It Is, and Why It Matters, Especially for the EU. Philosophy & Technology. 2020.
6. European Parliamentary Research Service. Digital Sovereignty for Europe. Brussels, 2020.

INNOVATIVE
ACADEMY